



O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING RIVOJLANISH HOLATI VA UNDA INTERNET-BANKINGNING AHAMIYATI

Norkulova Dilbar Abdimukimovna

Bank-Moliya Akademiyasi

MBA "Banking" mutaxassisligi

2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada banklar faoliyatida yangi texnologiyalarning o'ri, shu jumladan internet bankingni banklarning rivojlanishidagi ahamiyati, istiqbolda masofaviy xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatlariga oid ilmiy-nazariy qarashlar o'rganildi hamda ularning bugungi kundagi holati statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilibdi. Shu bilan birga, O'zbekiston tijorat banklari amaliyotida masofaviy xizmatlarni rivojlantirishda yuzaga kelayotgan muammolar o'rganildi hamda ularni bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi.

Kalit so'zlar: masofaviy bank xizmatlari, internet-banking, mobil-banking, Bank-mijoz, onlayn-banking

Abstract: In this article, the role of new technologies in the activity of banks, including the importance of Internet banking in the development of banks, scientific and theoretical views on the possibilities of remote services development in the future, and their current state were analyzed based on statistical data. At the same time, the problems arising in the development of remote services in the practice of commercial banks of Uzbekistan were studied and proposals and recommendations were made for their solutions.

Kalit so'zlar: remote banking services, internet-banking, mobil-banking, client-bank, online banking.



Kirish. Hozirda yurtimiz hamda dunyo davlatlari banklarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yangi bank mahsulotlari va masofaviy bank xizmatlarining bir qancha turlari keng joriy qilinib kelinmoqda. Negaki, axborot texnologiyalari keng rivojlanishi bir tomondan zamonaviy hayot kechiruvchi insonlar hayotiga juda katta tasir o'tkazayotgan bo'lsa, boshqa tomondan o'zaro raqobatga kirishib, mamlakatimiz bank xizmatlari bozorini kengaytirishga intilayotgan tijorat banklarining ham o'z faoliyatlarini yanada diversifikatsiya qilishga olib kelmoqda.

Yurtimiz tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlarini diversifikatsiya qilib borish, yangidan yangi zamonaviy, raqamli texnologiyalarni kengroq joriy etish banklarning raqobatbardoshligini oshirishga, ularning xalqaro talablar doirasida faoliyat yuritishiga, shu bilan birga o'z mijozlarining ishonchini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Afsuski, yurtimiz banklarida raqamli texnologiyalarni qo'llash, axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, zamonaviy servis yechimlari asosida axborot texnologiyalarini, moliyaviy texnologiyalar va **zamonaviy bank mahsulotlarini joriy etish bo'yicha ham xalqaro talablardan ancha ortda qolmoqda.** Bank tizimida axborot xavfsizligini lozim darajada ta'minlash, shuningdek, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda inson omili ta'sirini kamaytirish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar ko'rish talab etilmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olib, mamlakatimizda bank sektorini isloh etish, ularni yanada erkinlashtirish hamda modernizatsiya qilish kabilar ko'zda tutilgan holda bir qator normativ hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, 2018 yil 23 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3620-sonli qarori qabul qilinishi bilan naqd pulsiz to'lovlarni amalga oshirishda innovatsion mahsulotlarni, shu jumladan, bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni rivojlantirish, mobil texnologiyalarni, birinchi navbatda, ijtimoiy-maishiy xizmat ko'rsatish, transport, savdo, umumiy ovqatlanish sohalarida, ayniqsa, hududlarda joriy etish, xalqaro to'lov tizimlari bilan o'zaro hamkorlikni taminlash chora-tadbirlari belgilab berildi.[1]



Tijorat banklarda xizmat ko'rsatishni modernizatsiya qilish, banklarning samarali infratuzilmasini yaratish va faoliyatini avtomatlashtirish, samarali infratuzilma yaratishni yanada rivojlantirish maqsadida 2020 yil 13 mayda esa "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning qabul qilinishi bank xizmatlarini ko'rsatishda mavjud muammolar, banklar va hukumat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlarni belgilab berdi. [2]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu maqolani yozishda **xalqaro va milliy darajadagi iqtisodchi olimlar va sohaning amaliyotchi mutaxassislari**ning masofaviy bank xizmatlariga oid fikrlari tahlil etildi, yaqindan o'rganib chiqildi.

Turli adabiyot, tadqiqotlarda masofaviy bank xizmatlariga turlicha ta'riflar berilgan bo'lib, ular asosan uning vazifalaridan kelib chiqilgan.

Xorij mamlakatlaridan Rossiy Federatsiya qonunchiligi o'rganilganda, ularda masofaviy bank xizmatlariga ta'rif berib o'tilmagan.

Rus iqtisodchisi N.N.Martinenko masofaviy bank xizmatlari mijozlarning bank hududiga kelmaslaridan telekommunikatsiya vositalari orqali bank operatsiyalarini bajarishga imkon beruvchi xizmatlardir deb ta'kidlagan[3].

Masofaviy bank xizmatlari an'anaviy usullarga qaraganda banklarning raqobatbardoshligini oshirishga, banklarda xarajatlarni minimallashtirishga, xizmat ko'rsatish sifatining oshishiga, mijozlarga xizmat ko'rsatishning qulayligiga, xizmat ko'rsatishning xilma-xil bo'lishiga olib keladi.[4]

Masofaviy bank xizmatlariga ta'rif berar ekan, N.A.Kovaleva masofaviy taqdim etiladigan bank xizmatlari "elektron-banking", "e-banking" va boshqa bir qator shunga o'xshash terminlar bilan judayam yaqin ma'noda ishlatiladi deb ta'riflaydi. [5]

Rossiya Federatsiyasidagi "Banks soft biznes" kompaniyasi direktori Dmitriy Miroshkinovning ta'kidlashicha, "mijozga masofadan turib xizmat ko'rsatish bank



bo'limida xizmat ko'rsatishga nisbatan ancha arzonga tushadi". Aynan Miroshkinovning fikriga ko'ra "Masofaviy bank xizmati", "BS client" tizimlari orqali xizmat ko'rsatish mijozga bank bo'limida xizmat ko'rsatishdan 16 marta arzonroq hisoblanar ekan. Bunda bank ishchi kuchini tejash orqali ish haqi ko'rinishidagi xarajatlarni, mijozga alohida yondashishga ketadigan (choy, kofe, shirinliklar bilan mehmon qilish kabilar) va boshqa bir qancha operatsion xarajatlarni tejash orqali ma'lum miqdorda foyda olishi nazarda tutilgan[6].

Mahalliy olimlarimizdan prof. Sh. Z. Abdullayevaning masofaviy bank xizmatlari to'g'risidagi fikrlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ular axborot texnologiyalarining rivojlanishi internetda moliyaviy xizmatlar ko'rsatish imkoniyatini kengaytirayotganligi, ilg'or firmalar va tijorat banklari bugungi kunda bu imkoniyatdan foydalangan holda mijozlarga masofadan turib xizmat ko'rsatish, elektron pullar hisobini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'layotganligiga, mamlakatimiz tijorat banklarida bank hisobvaraqlarini masofadan turib boshqarishni rivojlantirish kunning muhim masalalaridan biri ekanligiga e'tibor qaratgan. [7]

Yuqordagi fikr-mulohazalarni umumlashtirgan holda bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari – bankning o'z mahsulotlarini mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan taqdim etish texnologiyalari sifatida ta'rif berish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida tijorat banklarining masofaviy xizmatlariga oid tadqiqodchi olimlar fikr-mulohazalarini, ilmiy qarashlarini tahlil qilish, jarayonlarni kuzatish, ko'rsatkichlarni solishtirish, taqqoslash, natijalarni tanlanmadan populyasiyaga qarab umumlashtirish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR



Bugungi kunda innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi, yangidan yangi bank xizmatlarining yaratilishi natijasida banklarning mijozlarga ko'rsatayotgan xizmatlari yaxshilanib bormoqda hamda banklar tomonidan raqobatlashuv darajasi sifat jihatidan takomillashib bormoqda.

Banklar tomonidan turli masofaviy bank xizmatlarining yaratilishi mijozlar uchun ko'pgina bank operatsiyalarni masofadan amalga oshirish imkoniyatini taqdim etmoqda. Bunda mijozlar bank muassasasiga tashrif buyurmasdan turib, kompyuter yoki mobil telefonlari orqali bank xizmatlaridan foydalanadilar, natijada mijozlarning avvalo vaqti hamda bank hududiga kelib-ketish xarajatlari minimallasadi, ortiqcha ovoragarchiliklar bo'lmaydi. Bankning bunday masofaviy xizmatlaridan foydalanish bank mijozlari uchun qulaylik taqdim etadi hamda bank xizmatidan tezda, uzoq navbatlarsiz foydalanishga sabab bo'ladi.

Bugungi kunda yurtimiz quyidagi banklarida masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari amal qiladi:

- Bank-mijoz
- Internet-banking
- Mobil banking
- SMS-banking

1980-yillarda telefon orqali bank xizmatlarini onlayn taqdim etish bugungi kundagi masofaviy bank xizmatlarning ilk ko'rinishlari bo'lib hisoblangan. 1980-yillarning oxiriga kelib esa, telefon liniyalari orqali bank xizmatlarini taqdim etishda "onlayn" termini ancha keng tarqalgan.

Ilk telefon aloqasi orqali mijozlarga onlayn bank xizmati ko'rsatish 1980 yil dekabr oyida Birlashgan Amerika Banki tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, bank bosh ofisi Texas shtatining Noksvil shahrida joylashgan edi.

Keyinchalik 90 yillar o'rtalariga kelib, mijozlarning xonadonlarida shaxsiy kompyuterlariga bank-klient xizmati o'rnatila boshlagach, telefon orqali xizmat ko'rsatish



kamaya boshladi. Bankomat, infikiosklarning yaratilishi bilan esa bank xizmatlaridan mijoz tomonidan o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish tizimi orqali foydalanish kengaya boshladi. Bu xizmat turi esa yillar davomida rivojlanib, o'z funksiyalari kengayib boryotganligi ahamiyatlidir.

Bankning masofaviy xizmatlari ichida eng tez rivojlanib borayotgan hamda yildan yilga taraqqiy etib borayotgan turlaridan biri **internet banking** hisoblanadi. 2001-yillarda butun dunyoda juda keng miqyosda internet banking taraqqiy eta boshladi. Internet-banking xizmati bizga internet orqali o'z bank hisob raqamimizni boshqarish imkonini beruvchi texnologiyadir. Ushbu texnologiya bilan to'la qonli ishlash uchun bizga Internet tarmog'iga ulangan kompyuter kerak bo'ladi. Yuqori darajada tezlik va xavfsizlik asosida onlayn rejimida bank xizmatlaridan foydalanishga imkon beradi.

Internet-banking texnologiyasi orqali bank mijozlari o'z hisobvarag'i bo'yicha bank amallarini bajarish uchun bankka bormasdan, internet orqali xohlagan joyidan, xohlagan vaqtida bajarish imkoniyatiga ega bo'lib, hisobvarag'ining holati, mablag'ning kelib tushishi, to'lovlarning aks ettirilishi kabi amallar haqida ma'lumotlarni olishi mumkin. Bu esa mijoz uchun o'z vaqti va mablag'ini tejash, manzilning uzoq-yaqinligiga qaramasdan bankni ixtiyoriy ravishda tanlash va o'z mablag'larini tezkor boshqarish afzalliklarini yaratadi.

Bugungi kunda aholi tijorat banklarining mobil ilova dasturlari orqali real vaqt rejimida kartadan kartaga pul o'tkazish (P2P) operatsiyalarini bajarish, soliq, byudjet, kommunal va boshqa to'lovlarni amalga oshirish, mikroqarz olish va kreditlarni so'ndirish, onlayn omonatlarni rasmiylashtirish, depozit hamda ssuda (kredit) hisobvaraqlarini masofadan ochish, xalqaro bank karta hisobvarag'idan to'lovlarni amalga oshirish, onlayn konversiya operatsiyalarini amalga oshirish va boshqa masofaviy bank xizmatlaridan keng foydalanmoqda. [8]


O'z navbatida, korxona va tashkilotlar uchun bank hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlari orqali real vaqt rejimida bank hisobvaraqlaridagi mablag'larni tasarruf



etish va to'lovlarni amalga oshirish, valyuta mablag'lari sotib olish (konvertatsiya) uchun buyurtmanomani elektron shaklda xizmat ko'rsatuvchi bankka yuborish, oylik ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni o'tkazish uchun elektron qaydnomani bankka uzatish va boshqa xizmatlardan foydalanish bo'yicha imkoniyatlar yaratildi.

2020-yildan boshlab yurtimiz banklarida keng miqyosda transformatsiya dasturlari hamda elektron bank xizmatlarini amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Bank sohasini sohasini isloh qilish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar natijasida so'nggi uch yilda banklar kapitali 1,8 baravarga, yillik kredit ajratish hajmi 2 baravarga ko'paydi. Onlayn bank xizmatlari hajmi 2,7 barobarga oshdi[9].

Bu ma'lumotlar ham masofaviy xizmatlarni yangi bosqichga chiqayotganligidan dalolat beradi hamda kelgusida banklarimizdagi bo'layotgan bu o'zgarishlar nafaqat bank xizmatlarini sifatini oshirishga, shu bilan birga banklarning imidjini ham oshirishga yordam beradi.




Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni (2024 yil 1 yanvar holatiga) [10]

Rasm ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, 2019-2022 yillar oralig'ida tizimdan foydalanuvchilar soni qariyb 2.5 barobardan ortdi. Yurtimiz banklarida ilk bora masofaviy xizmatlar paydo bo'la boshlagan davr bilan solishtirganda esa, 180 barabardan ortiq ravishda oshishga erishilgan. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida aholining bank



xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini masofadan turib qondirish zarur bo'lgan 2020-2021 yillar mobaynida masofaviy bank xizmatlariga talab juda oshib, foyalanuvchilar soni (4 mln.dan ortiq oshdi) ham sezilarli ravishda oshgan.



Masofadan bank xizmatlarini ko'rsatuvchi tizimlardan foydalanuvchilar soni, 1 yanvar holatiga (turlari bo'yicha) [11]




№	Bank	Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar	Jismoniy shaxslar	Jami
1	Milliy bank	100 147	1 706 618	1 806 765
2	O'zbekiston sanoat-qurilish banki	73 516	6 122 151	6 195 667
3	Agrobank	218 257	5 392 777	5 611 034
4	Ipoteka-bank	167 852	3 068 875	3 236 727
5	Mikrokreditbank	73 600	1 026 586	1 100 186
6	Xalq banki	120 118	4 278 639	4 398 757
7	Garant bank	6 905	90 230	97 135
8	Biznesni rivojlantirish banki	30 837	267 842	298 679
9	Turonbank	48 473	478 096	526 569
10	Hamkorbank	127 944	1 656 211	1 784 155
11	Asaka bank	36 660	876 037	912 697
12	Ipak Yo'li banki	62 888	2 351 952	2 414 840
13	Ziraat bank Uzbekistan	4 800	61 096	65 896
14	Trastbank	49 454	188 094	237 548
15	Aloqabank	65 289	1 545 265	1 610 554
16	KDB Bank O'zbekiston	1 345	45 280	46 625
17	Soderot bank Toshkent	426	2 642	3 068
18	Universal bank	13 152	147 691	160 843
19	Kapitalbank	51 857	1 347 994	1 399 851
20	Octobank	2 683	72 317	75 000
21	Davr-bank	26 091	208 242	234 333
22	Invest Finance bank	17 791	382 636	400 427
23	Asia Alliance bank	26 788	591 547	618 335
24	Orient Finans bank	30 647	553 722	584 369
25	Madad Invest bank	1 125	2 336	3 461
26	AVO bank	109	349	458
27	Poytaxt bank	1 142	10 850	11 992
28	Tenge bank	2 842	696 806	699 648
29	TBC bank	-	2 436 243	2 436 243
30	ANOR bank	29 725	4 143 047	4 172 772
31	UZUM bank	-	1 451 600	1 451 563
32	HAYOT bank	-	231	231
Jami		1 392 463	41 204 002	42 596 428



Yuqoridagi rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, so'ngi uch yilda tizimdan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni 2.5 baravardan ortiq ko'payib, teng ravishda 7 599,30 ming nafardan 19 234,80 ming nafarga yetgan. Tizimdan foydalanuvchi yuridik shaxslar esa 359 ming.nafardan 968,6 mingga yetgan. So'nggi 3 yillarda COVID-19 pandemiyasi davrida banklar tomonidan masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha e'lonlar, yangiliklar, video roliklar turli platformalarda berib borildi, masofaviy bank xizmatlari tizimiga ulanish va masofadan bank xizmatlarini ko'rsatish tizimlari hammaga tushunarli ravishda yildan yilga soddalashtirib borilishi natijasida masofadan bank xizmatlaridan foydalanuvchilar soni keskin oshdi deb aytish mumkin.

Mamlakatimizda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish, takomillashtirish, yangidan yangi xizmat turlarini yaratish bo'yicha banklar tomonidan doimiy ravishda keng chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bularning natijasida, 2024 yil 1 mart holatiga xizmatdan foydalanuvchilar umumiy soni 42,5 mln. dan ortgan.

Masofaviy bank xizmatlari yuridik shaxslar va YaTTlar hamda jismoniy shaxslar segmentiga bo'lingan holda taqdim etib kelinmoqda. Mazkur tizim foydalanuvchilar umumiy sonida O'zsanoatqurilishbanki, Uzumbank, Anorbank, TBC bank, TIF Milliy banki, Agrobank, Xalq banki, Ipoteka-bank, Mikro kreditbank, Aloqabank, Aloqabank, Asaakabank, Kapitalbank, Hamkorbankning ulushi beqiyos bo'lib, ularning birgalikdagi ulushi qariyb 90 foizni tashkil etmoqda (3-rasm).



3-rasm. O'zbekiston masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilarining banklar kesimida taqsimoti, foizda [13]



Rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, umumiy foydalanuvchilar soni bo'yicha eng asosiy ulushni O'zsanoatqurilishbank, Agrobank, Xalq banki egallaydi. O'zsanoatqurilishbankning bozordagi ulushi 15 foizni, Agrobank 13 foizni, Xalq banki 10 foizni egallaydi. Foydalanuvchilar alohida segmentlar kesimida tahlil qilinganda esa yuridik shaxslarning eng katta ulushi Agrobank hissasiga, jismoniy shaxslar ulushi O'zsanoatqurilishbank hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Yurtimiz banklari tomonidan taqdim etilib kelinayotgan masofaviy xizmatlar bank mijozlariga qulay imkoniyatlar yaratib berayotgan bo'lsa, iqtisodiyot va bank tizimi uchun ham katta burilish yasadi deb aytilish mumkin. Yildan yilga plastik kartalar emissiyasi, onlayn kreditlar va onlayn omonatlar hajmi tez sur'atlarda oshmoqda. Banklar tomonidan mijozlarga ko'p sonli hodimlar bilan emas, onlayn mobil ilovalar yoki veb saytlar orqali xizmat ko'rsatilib, yuqori daromadga erishilmoqda.

Albatta texnologiyalarning taraqqiy etishi, ular yaratayotgan qulayliklar bir tomondan ijobiy holat bo'lsa, boshqa tomondan bunday tizimlarning ayrim kamchiliklarini ham aytilib o'tish joizdir. Xususan, mijozlar uchun:

- Ehtimoliy texnik nosozliklardan hech qaysi tizim to'la kafolatlanmaganligi;
- Ikki bosqichli identifikatsiyaga qaramay haligacha kiber hujumlar natijasida firibgarliklar uchrab turganligi;
- Masofaviy xizmatlardan foydalanishda internet va telekommunikatsiya tizimiga ulanishning lozimligi;
- Ma'lumotlar saqlanishi to'la kafolatlanmaganligi.

Banklar uchun esa:

- Mijozlar tomonidan identifikatsiya va avtorizatsiya amallarini amalga oshirishning ishonchsizligi;
- Xizmat ko'rsatuvchi dasturlarda ehtimoliy nosozlikning (kompyuter viruslari natijasida) yuzaga kelishi.

XULOSA VA TAKLIFLAR



Ilmiy maqola yuzasidan olib borilgan o'rganishlar natijasiga ko'ra xulosa qiladigan bo'lsak, masofaviy xizmatlarni kengaytirish, eng avvalo iqtisodiyotda tovar pul munosabatlarini jadal rivojlanishiga turtki bo'ladi. Aholiga esa bank xizmatlardan masofadan turib foydalanishi ularda vaqtdan tejash va o'z xizmatini masofadan ko'rsatgan savdo va xizmat ko'rsatish tashkilotiga nisbatan sadoqatini ortishiga olib keladi.

Shu bilan birga, bank sohasi uchun masofaviy xizmatlarni taqdim etib borish istiqboli yuqori deyish mumkin. Banklar miqyosida olib borilgan tadqiqotlar masofaviy xizmatlardan foydalanish tendensiyasi ham yildan yilga oshib borayotganligini va kelajakda ham yanada oshib borishi muqarrar ekanligini ko'rsatadi. Pandemiya davrida yuqori sur'atlarda foydalanuvchilarning ortganligi, keyinchalik pandemiya davridan keying yillarda ham uning davom etayotganligi fikrimizning isboti deya olishimiz mumkin.

Masofaviy bank xizmatlarining bugungi holati, rivojlanish tendensiyalarini o'rganish natijasida shularni aytish mumkin, banklar raqamlashish jarayonini yana jadallashtirib, o'z mijozlarining xohish istaklarini doimiy ravishda o'rganib borgan holda masofaviy xizmatlar sifati va ko'lamini oshirib, raqobatbardoshligini ta'minlashlari zarur.

Mamlakatimizda banklar bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni saqlab qolishlari uchun o'z strategiyalarini tezroq o'zgartirishlari zarur bo'ladi. Haligacha masofaviy xizmatlari sifatini oshirmasdan, mobil ilovalarni ham yangi xizmat turlari bilan yetarli darajada boyitmay kelayotgan banklarga esa o'z mijozlariga masofadan xizmatlar sotishni taqdim etish bo'yicha chuqur tahlillar o'tkazishni, onlayn va mobil bank xizmatlarini ijtimoiy media, innovatsion to'lov tizimlari va mobil texnologiyalar kabi eng yangi raqamli texnologiyalar bilan birlashtirishni, masofaviy xizmatlardan foydalanishni afzalliklarini baholashni tavsiya etish mumkin bo'ladi.

Respublikamiz banklari bank mahsulotlari bozorida bo'ladigan o'zgarishlarni o'z vaqtida sezishi, bank sohasiga eng yangi innovatsion texnologiyalarni qo'llashi muhim bo'lib, yangi moliyaviy texnologiyalar bilan raqobatlashish ko'nikmalarini rivojlantirish har bir bankning strategik maqsadi bo'lishi zarur.



Masofaviy xizmatlarni yanada rivojlantirish tijorat banklari quyidagilarga e'tibor berish berishi lozim:

- 1) Banklar masofaviy xizmatlarni taqdim etar ekan, ularning kuchli me'yoriy-huquqiy asoslarini shakllantirilish lozim, buning natijasida bank mijozlarining raqamli bank xizmatlariga bo'lgan ishonchi yanada ortadi hamda ushbu xizmatlarning tezkorligi va ommabopligi qulayligini anglab olishlari mumkin bo'ladi;
- 2) Bank sohasiga yangi innovatsiyalarni, ma'lumotlarni avtomatik tahlil qilish tizimlarini joriy etish, shu bilan birga amaldagi banklarning an'anaviy xizmatlarini to'liq tahlil qilib, yangi moliyaviy texnologiyalarni qo'llagan holda ularni masofaviy xizmatlar sifatida taqdim etishda zarur chora tadbirlar ko'rish lozim;
- 3) Doimiy ravishda mijozlar bilan interfaol usulda ishlab, ularning fikrlarini takliflarini o'rgangan holda holda bank xizmatlarini muntazam rivojlantirib, ularning sifatini yaxshilab borish va yangi zamonaviy xizmatlarni joriy etish uchun imkoniyatlar yaratib boorish;
- 4) Banklar tomonidan yuridik shaxslarga taqdim qilinayotgan xizmat turlarini ko'paytirish;
- 5) Banklar tomonidan aholiga ommabop tovarlar sotayotgan va xizmatlar ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar bilan shartnoma imzolab, ekvayring xizmatlarini ko'rsatish va bu orqali ko'proq mijozlarni masofaviy xizmatlar bilan qamrab olish.

ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. 2018 yil 23 martda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 3620-sonli qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 13 mayda "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" Farmoni
3. Мартыненко, Н.Н., Развитие банковских услуг в сфере розничного бизнеса: монография / Н.Н. Мартыненко, О.М. Маркова, О.С. Рудакова, Н.Э. Соколинская. –



- Москва: КноРус, 2018. – 172 с. – ISBN 978–5–4365–2726–0. – URL: <https://book.ru/book/930266> (дата обращения: 24.08.2022), с. 12.
4. Современные банковские продукты и услуги: учебник/ О.И.Лаврушин, Н.Е.Бровкина, И.И.Васильев, В.Е.Косарев, А.Е.Ушанов. Кедрова.-Москва: Кнорус, 2021-252 с. ISBN 978–5–406-03309-8
 5. Банковские риски: учебник / Л.Н. Красавина, И.В. Ларионова, М.А. Поморина [и др.]; под ред. О.И. Лаврушина, Н.И. Валенцевой. – Москва: КноРус, 2023. – 361 с. – ISBN 978–5–406– 10492–7. – URL: <https://book.ru/book/945213> (дата обращения: 24.08.2022), с. 302
 6. Mamadiyarov Z.T. Tijorat banklarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishga ta'sir qiluvchi omillar tahlili // «Iqtisodiyot va ta'lim» ilmiy jurnali. - Toshkent, 2019. - №1, yanvar-fevral. –71-77 b.
 7. Abdullayeva Sh. Z.. Bank ishi. Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA” 2017. 535-536 bb
 8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <https://cbu.uz> sayti ma’lumotlari
 9. Sh.Mirziyoyev ishtirokidagi “Bank tizimida transformatsiya va xususiylashtirish jarayonlari muhokamasi bo‘yicha yig‘ilishdan. 2023 yil 20 noyabrda.
 10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <https://cbu.uz> sayti ma’lumotlari
 11. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <https://cbu.uz> sayti ma’lumotlari
 12. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <https://cbu.uz> sayti ma’lumotlari
 13. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <https://cbu.uz> sayti ma’lumotlari